

Jadid ijodkorlari asarlarida ilm talqini

Mahina Axrorova

SamDU Pedagogika ta'limi fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: XIX asrda ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan nom olgan va XX asr boshida rivojlangan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar nomoyondalari – Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Munavvar Qori, Abdulla Avloniyar ijodi va faoliyatida yana ham kuchaydi. Jadidlar xalqni birlashtirish va butun o'lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g'oyasini ilgari surdilar. Ilm-fan, ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya masalasi jadidlar uchun yetakchi g'oya bo'lganligi maqolada misollarda bilan keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ilm-fan, hunar, ma'rifat, g'oya, ilmsizlik, odob-axloq, tashabbus, xalqparvar, ko'ngil, pand-nasihati, manfaat, voqea, qahramon.

Abstract: Behbudi, Fitrat, Cholpon, Munavvar Kori, Abdullah Avloni became stronger in their work and activities - progressive representatives of the Jadidism movement, which became famous in the 19th century for the ideas of enlightenment and developed at the beginning of the 20th century. The Jadids put forward the idea of uniting the people and fighting for the national independence of the entire country. The article notes that the leading idea of contemporaries was the problem of science, enlightenment and education.

Key words: science, craft, enlightenment, idea, ignorance, manners, initiative, philanthropist, heart, advice, interest, event, hero.

Аннотация: Укрепились в своей работе и деятельности Бехбуди, Фитрат, Чулпон, Мунаввар Кори, Абдулла Авлони — прогрессивные представители движения джадидизма, прославившегося в XIX веке идеями просветительства и получившего развитие в начале XX века. Джадиды выдвинули идею объединения народа и борьбы за национальную независимость всей страны. В статье отмечается, что ведущей идеей современников была проблема науки, просвещения и образования.

Ключевые слова: наука, ремесло, просвещение, идея, невежество, манеры, инициатива, меценат, сердце, совет, интерес, событие, герой.

Kishilarning hayot, kun kechirish ehtiyoji qadimgi davrlardanoq bilimni yaratgan edi. Chunki hayot ehtiyojini qondirish uchun kishilar mehnat qilishga, biror ishni bajarishga, intilishga majbur bo‘ladilar va biror narsani ishlab chiqaradilar. Moddiy ishlab chiqarish esa, o‘z-o‘zidan oddiy bilimni talab etadi. Demak, ilmni kishining ehtiyoji keltirib chiqaradi va ilm ehtijoy uchun xizmat qiladi. Davrlar mobaynida ishlab chiqarish ehtiyoji ilm-ma’rifatning ahamiyatini oshirdi. Hazrat Alisher Navoiy ham shoh asarlar yaratdi va ularda ilg‘or g‘oyalarni ilgari surdi. Jumladan, ilm-fan, ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya masalasi doim diqqat markazida turdi. Tarixiy va siyosiy voqealar avj olgan davrda yashagan insonparvar shoir kishilarni aql-idrokka, xulq-odobga, ilm-ma’rifatga undaydi. O‘z asar qahramonlarini ilm va fanga intiluvchi, ta’lim-tarbiya olishga ishtiyoqi zo‘r, san’at va hunarda mohirlikka erishish uchun qunt qiluvchi, bilimdon, dono, san’atkor va hunar egasi bo‘lgan oliyjanob kishilar qilib tasvirlashi bejiz emas edi. Navoiy xalqning bilimli bo‘lishini orzu qiladi. Ilm-fanni xalq orasida yoyishga katta ahamiyat beradi. Xalqning hamma vaqt ilm olishga intilishi, ilmu ma’rifatdan bahramand bo‘lishi zarurligini ta’kidlaydi. “Bilim va donolik kishini bezatadi”, - deydi. Bilmaganni so‘rash ayb emasligi so‘ramaslik uyalish, orlanish zarar ekanligini uqtiradi:

Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim,

Orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim.

Xalqparvar shoir ilm-ma’rifat va ta’lim-tarbiya xalq uchun, uning manfaati uchun xizmat qilishi darkor, - degan ulug‘ g‘oyani ilgari suradi:

Jahl ahli bila kimgaki ulfat bo‘lg‘ay,

Ul ulfati ichra yuz ming ofat bo‘lg‘ay.

So‘zni ko‘ngilda pishqarmaguncha, tilga keltirma,

Va har nekim ko‘ngilda bor – tilga surma.

Yuqorida keltirilgan hazrat Navoiy hikmatlarini davom ettirib, Munavvarqori ham “Adib-us soniy” darsligida ilm olishga da’vat qiladi.

Ilm-bilmagan narsalarini bilganlardan o‘rganmoqdir.¹ –deb, insonni ilm olishga, uni ilmlilardan so‘rab o‘rganishga chaqiradi. Inson tug‘ilganida hech narsani

¹ Jadid Namoyandalari odob-axloq kitobi. Toshkent.: “Yoshlar matbuoti”,2023-yil.192 bet.

bilmasligini, har bir yangi ma'lumotni atrof-dagilaridan o'rganishini, bilgan har bir ma'lumot ilmning bir zarrasi ekanligini ta'kidlaydi. Ilm insonni hamisha e'zozlashini, ilmsizlardan esa soqov va eshitmaydigan kar yaxshiroq, deb aytadi.

Ilmdur dunyoda eng yaxshi hunar,

Ilmsizdan yaxshidur gung ila kar.

Har kishi ilm-la bo'lsa oshno,

Izzatu davlatda bo'lg'ay doimo,

Ilmsiz odam zalilu xor o'lur,

Ilmsizlardan hamma bezor o'lur².

Munavvarqori Abdurashidov pand-nasihat ruhidagi hikoyalarining qahramonlarini ham Navoiy asarlari qahramonlaridan ta'sirlanib yaratgan. "Iskandar Zulqarnayn", "Iskandar ila Arastu" hikoyalari bunga misol qilishimiz mumkin, faqat Munavvarqori Iskandari o'z davri xislatlari bilan boyitgan. Iskandar Zulqarnayn obrazi shunga misol qilishimiz mumkin. "Iskandar Zulqarnayn" hikoyasida bir devona Iskandarga yo'liqadi va unga: "Ey podshohi olam, pashshalar manga har vaqt tashvish beradurlar. Yuz va qo'llarimni chaqib, xafa qiladurlar. Buyursangiz pashshalar manga bunday ozor bermasalar". Shunda Iskandar: "Ey devona, mandan shunday narsa so'ragilki, ul narsa manim hukmimda bo'lsin. Man pashshaga nechuk buyruq qilurman?"-deb javob beradi. Bu gaplarni eshitgan devona: "Ey podshoh, dunyodagi maxluqotlarning eng kichkinasi va ojizrog'i pashshadir. Shul pashshagaki hukmingiz yurmas, emdi sizdan nima so'rayman?" Yuqoridagi hikoyadan ko'riniyaptiki, olamni yarmini egallaydigan hukmdor ham Olloh mo'jizasi oldida ojiz qolar ekan. "Inson nima so'rasa, Ollohdan so'rashi kerak, bandasidan emas"- degan xulosaga kelasiz.

Dunyoda sening na hojating vor,

So'ragil oni san Xudodan, ey yor.³

Alisher Navoiy she'riyatidagi ilm va ma'rifat g'oyalarining asosini islomiy manbalar, xususan, Islom dinining birinchi asos kitobi Qur'oni Karim tashkil etadi⁴.

Alisher Navoiy ilgari surgan g'oya, mazmun va uslubni jadid adiblari ham ilgari surdi. Ularning ijod namunalari o'qib, Navoiy an'anasini davom ettirgan deyish mumkin.

² Abdurashidxonov M. "Tanlangan asarlar". (Nashrga tayyorlovchi S. Axmedov).-Toshkent, Ma'naviyat 2003.

³ Jadid namoyandalari odob-axloq kitobi. Toshkent, "Yoshlar matbuoti", 2023-yil. 192 bet.

⁴ Раззоков А.А. Алишер Навоий шеърлятида илм ва маърифат талқини: Филол.фан. бўйича фалс. докт.дисс.автореф. – Қарши, 2019. -Б.11.

Ibrat o‘zining “Tarixi vagon Is’hoqxon Ibratdin” she’rida xalqni, yoshlarni dunyoviy ilmni o‘rganishga, texnikani egallashga chaqiradi:

*O‘qingiz ilmi hikmat sizga bu ish katta Ibratdur,
Agar ilm o‘rganursiz, barcha ishda sizga nusratdur,
Agar ilm bo‘lmasa, nodon umri barcha kulfatdur,
Bu ashyoyi jadidi mubaddali asli hikmatdur.*

Ajib foyizi arzoqi insoniy vagon keldi (Ibrat, 100).

Bahrombek Davlatshoh o‘g‘li esa, xalqni o‘z tarixidan g‘ururlanishiga, ilm-fanga e‘tiqod, qiziqish uyg‘otishga harakat qiladi:

*Bizi millat emasmu ibtido dunyoni nurlatqon,
Hama g‘aflatning uyqusina yotqonlarni uyg‘otqon.
Madaniyat tarqatqon, har urqug‘a ilm tarqatqon,
Tijorat birla mashriqdan oshib, mag‘rib borib sotqon,
Kelinglar bahs etaylik emdi istiqboli millatdan,
Boqib ibrat bila, o‘tmish zamon ahvoli millatdan.*

Davr islohotlarining asosiy mazmuni komil inson tarbiyalovchisi xotin-qizlarning yangi g‘oya va tashabbuslar bilan chiqishlarini qo‘llab-quvvatlash, mamlakatda amalga oshirilayotgan harakatlar, o‘zgarishlar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirok etishlarini ta‘minlashdan iborat. Zero, inson qadrini ulug‘lash, avvalo, ayolga hurmat va ehtirom, mo‘tabar onalarimizni e‘zozlash, munis opa-singillarimizni qadrlash orqali ro‘yobga chiqadi, degan g‘oya Bahrombek Davlatshoh o‘g‘li tomonidan ko‘tariladi:

*“Tek tur!” degan kishi so‘zig‘a osmayin quloq,
Ishga tutun, o‘tirma uyungda bo‘lib qo‘noq.
Qo‘lga tutub bilim yaroqin, hur otina min,
Dushmanlarimiz etmak uchun bizlari uloq...*

Ona bolaga to‘g‘ri e‘tiqod qilishni o‘rgatsa, bola mol-dunyoga emas, Haqqa, ma‘rifatga, ilmga, axloq-odobga e‘tiqod qo‘ysa, jamiyatda o‘z o‘rnini topadi. Shoir aytgamidek, *dushmanlarimizga uloq bo‘lmay, o‘zi yashayotgan jamiyatda farovon va hur fikrli inson bo‘lib yashashga chaqiradi.*

Bahrombek Davlatshoyev o‘z davri ijtimoiy-siyosiy voqealarining guvohi sifatida sodir bo‘layotgan adolatsizlik va ma‘rifatsizlikka sukut saqlay olmadi. Shu bois o‘z she’r va maqolalarida yurtdoshlarini ilm-u ma‘rifatga, ittifoqlikka chaqirdi. “*O‘tmish hollardin taassuf va istiqbol uchun ko‘chish*” she’rida quyidagi fikrlarni bayon qiladi:

*...Nishon hech qolmadi avvalgi... millatdan,
Na bo'ldi deb xabar olg'uvchi bormu holi millatdan.
Kelinglar so'zlashayluk emdi istiqboli millatdan,
Xabar olib turaylik cho'x fano ahvoli millatdan.
Biror millat jahonda bormu bizlardek shatolatli,
O'zining naf'ini hech bilmag'on g'ofil zalolatli.
Hunarsiz, ilmsiz, nomussiz, nodon jaholatli,
Ko'rib ming xo'rlik bir bo'lmag'on ondin xijolatli...
... Bizi millat emasmi ibtido dunyoni nurlatgan!
Hama g'aflatning uyqusina botqanlarni uyg'otgan!*

O'tmishda buyuk ishlarni amalga oshirgan millat nima uchun bunday ahvolga tushdi, degan savol shoirni qiynaydi, o'quvchini o'tmish va kelajakka nazar tashlashga majbur etadi. Shu bois porloq istiqbol yo'lini millatning uyg'onishi, ittifoqlik, ilm-u hunar taraqqiyotida ko'radi va shunga chorlaydi. Ana shuning uchun ham Ostroumovlar va boshqalar tomonidan o'z millatining kamsitilib "sart" deyilishi va bu masalada "Oyina", "Turkiston viloyatining gazetasi"da boshlangan bahslarga yakun yasagandek, "Sho'ro" jurnalida "Turkistonlilar" maqolasini e'lon qiladi va bir yuz o'n bir turk urug'ini nomma-nom keltiradi⁵.

Xullas, qaysi jadid ijodkor ijodiga diqqat qaratsak, barchasida aql, ilm-ma'rifat, axloq-odob, ta'lim-tarbiyaga bo'lgan munosabatni ko'ramiz. Shu bilan birga, ma'rifatparvar shoirlarning o'z davridagi ijtimoiy-siyosiy tuzum, uning diniy-mistik ideologiyasi hukmronligi ostida yashab ijod etganliklari tufayli ularning ayrim fikr-mulohazalarini ro'y-rost aytoilmaganliklarini, asl mohiyatini qaysidir so'zlar bilan aytagnini kuzatamiz.

Turkiston mintaqasida XIX asr oxiri XX asr boshida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar o'lkada zamonaviy fikrlaydigan taraqqiyparvarlarning maydonga chiqishiga sabab bo'ldi. Ularning millatni uyg'otish, jaholatga qarshi kurashish, mamlakatni taraqqiy ettirish yo'lidagi mardonavor kurashi jadidlik harakati nomi bilan tarix zarvaraqlaridan joy oldi. Jadidlar bu harakatda millat fidoyilari sifatida tarix zarvaraqlariga muhrlandi. Ularning ijtimoiy-siyosiy faoliyatini, tarixiy jarayonlarda tutgan o'rnini yoritish, tahlil qilish alohida tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

⁵ Sirojiddin Ahmad. Bahrombek – tarjimon // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2022-yil 3-iyun, 19 (4678)-son.

Jadidlar asosiy maqsadi, xalqni ilmi va m'rifatli qilish. Mana shu maqsad yo'lida bir necha asarlar yozdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jadid Namoyandalari odob-axloq kitobi. Toshkent.: "Yoshlar matbuoti",2023-yil.192 bet.
2. Abdurashidxonov M. "Tanlangan asarlar". (Nashrga tayyorlovchi S. Axmedov).-Toshkent, Ma'naviyat 2003.
3. Jadid namoyandalari odob-axloq kitobi. Toshkent, "Yoshlar matbuoti", 2023-yil. 192 bet.
4. Раззоқов А.А. Алишер Навоий шеърлятида илм ва маърифат талқини: Филол.фан. бўйича фалс. докт.дисс.автореф. – Қарши, 2019. -Б.11.
5. Sirojiddin Ahmad. Bahrombek – tarjimon // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2022-yil 3-iyun, 19 (4678)-son.
6. Жадидчилик ва миллий истиқлол тантанаси. – Тошкент, 2002. – Б.210.
7. Odob-axloq kitobi / Jadid adabiyoti namoyandalari: M.Behbudiy va boshq. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B. 25.
8. Махмудхо'жа Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999. - B.49.
9. Абдурасулов М. Ўзбек маърифатпарвар шоирлари илм-маърифат ҳақида. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972. – Б.82; Очилов М.У. Ўзбек адабиётида одоб-ахлоқ тасвири муаммоси ва унинг янги талқини: Филол. фан. номз.дисс. автореф. – Самарқанд, 1997. – Б.24.